

**“Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi” AJ barcha ovoz beruvchi aksiyalari
bo'yicha yagona aksiyadorining 2/2026-sonli
QARORI**

Toshkent sh.

2026-yil “8” sentyabr

“Yangi Angren IES” AJning jami chiqarilgan va joylashtirilgan aksiyalari 37 732 650 donani tashkil etadi.

“Yangi Angren IES” AJning barcha 37 579 750 dona ovoz beruvchi oddiy aksiyalari O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga (*keyingi o'rinlarda – Davaktiv agentligi*) tegishli bo'lib, jamiyatning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari bo'yicha yagona aksiyadori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davaktiv agentligining 2023-yil 23-noyabrdagi 02/09-5-17/685-sonli ishonchnomasiga muvofiq “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Boshqaruv raisi B.Jurayevga yagona aksiyador nomidan ovoz berish huquqi berilgan.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 58 va 59-moddalariga hamda “Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

KUN TARTIBI:

“Yangi Angren IES” AJ ijroiya organining rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 59-moddasida Jamiyat ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirishi;

O'zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”gi Qonunining 45-moddasida Davlat ishtirokidagi korxonaning ijroiya organi rahbari kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) umumiy yig'ilishi yoki muassis tomonidan uch yil muddatga saylanishi hamda uning faoliyati natijalari qoniqarsiz deb baholangan taqdirda muddatidan oldin lavozimidan ozod etilishi mumkinligi belgilangan.

“Yangi Angren IES” AJ ustavining 101-bandida bosh direktorni aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi tomonidan saylanishi belgilab qo'yilgan.


Shunga ko'ra, Agentlikning 2026-yil 7-sentyabrdagi 02/09.2-17/1255-sonli xati bilan Yakubov Djamoliddin Mirqobilovich nomozodini “Yangi Angren IES” AJ ijroiya organi rahbari lavozimiga **vazifasini vaqtincha bajaruvchi** etib tayinlashga rozilik berilgan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Yangi Angren IES” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalarining egasi-yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. “Yangi Angren IES” AJ bosh direktori lavozimiga yangi rahbar tayinlangunga qadar Yakubov Djamoliddin Mirqobilovich “Yangi Angren IES” AJ bosh direktori **vazifasini vaqtincha bajaruvchi** etib tayinlansin.

2. “Yangi Angren IES” AJ (Mirnizamutdinov)ga **1 oy muddatda** jamiyat bosh direktori lavozimiga oʻrnatilgan tartibda tanlov oʻtkazilishini taʼminlasin, tanlov natijalarini boshqaruv organlarida koʻrib chiqilishini tashkilashtirish vazifasi yuklatilsin.

**“Yangi Angren IES” AJning barcha ovoz
beruvchi aksiyalarining ishonchnoma
asosida boshqaruvchisi -yagona aksiyadori
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Boshqaruv
raisi**



B. Jurayev